

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE IMAGE OF THE MADMAN: ITS FUNCTIONS IN LITERARY THEORY, SEMIOTIC AND POETIC NATURE****Sadoqat Kamolova**

PhD Student

*Department of World Literature and Comparative Literary Studies**Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature*Sadoqat180894@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: masked truth, archetype, psychological deviation, type, motif, surreal, grotesque, expressionistic, existential.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

Abstract: This article examines the mechanisms behind the formation of the “madman figure” in literary theory, its artistic and philosophical functions, and its aesthetic interpretations across different historical periods and literary traditions. The study highlights the distinctive functions and poetic nature of the madman image. These functions are explained and presented in tabular form. The figure of Qovoqdevona from Abdulla Qodiriy’s novel *O‘tkan kunlar* (Bygone Days) is subjected to semiotic analysis, and the archetypal roots of this image are identified.

TELBA OBRAZI: ADABIYOT NAZARIYASIDAGI FUNKSIYALARI, SEMIOTIK VA POETIK TABIATI**Sadoqat Kamolova***Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik**kafedrası tayanch doktorant**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*Sadoqat180894@gmail.com*Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: maskalangan haqiqat, arxetip, psixik og‘ish, tip, motiv, surreal, grotesk, ekspressionistik, ekzistensial.

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot nazariyasida “telba obrazi”ning shakllanish mexanizmlari, badiiy-falsafiy vazifalari, turli davr va adabiy an‘analardagi estetik talqini haqida bahs yuritiladi. Telba obrazi funksiyalari va poetik tabiatining o‘ziga xosligi ko‘rsatiladi. Telba obrazining

funksiyalari izohlanadi va jadval ko‘rinishida taqdim qilinadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi qovoqdevona obrazi semiotic tahlilga olinadi. Ushbu obrazning arxetipik ildizlari ko‘rsatiladi.

ОБРАЗ БЕЗУМЦА: ЕГО ФУНКЦИИ В ТЕОРИИ ЛИТЕРАТУРЫ, СЕМИОТИЧЕСКАЯ И ПОЭТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА

Садокат Камолова

Базовый докторант

кафедры мировой литературы и сравнительного литературоведения

Ташкентский государственный университет

узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Sadoqat180894@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: замаскированная истина, архетип, психическое отклонение, тип, мотив, сюрреализм, гротеск, экспрессионизм, экзистенциальный.

Аннотация: В данной статье рассматриваются механизмы формирования образа «безумца» в теории литературы, его художественно-философские функции, а также эстетическая интерпретация в разные исторические эпохи и литературные традиции. Показана специфика функций и поэтической природы образа безумца. Функции данного образа объясняются и представлены в табличной форме. Образ Ковокдевоны из романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» подвергается семиотическому анализу. Выявляются архетипические корни данного образа.

Kirish. “Telbalik” motivini biz inson psixologiyasining chuqur qatlamlarini yorituvchi badiiy vosita sifatida bilamiz. Bu motiv konflikt yaratish, jamiyat stereotiplarini fosh etish, ijtimoiy tanqidni kuchaytirish hamda irrational (aqlga to‘g‘ri kelmaydigan, hissiyotga berilib qilinadigan holat yoki xatti-harakat) holatlar orqali haqiqatni anglash kabi bir qator poetik vazifalarni bajaradi. “Telba obrazi” adabiyot nazariyasida faqat kasallik yoki psixik og‘ish degani emas, estetik-falsafiy kategoriya, badiiy tipologiyaning muhim unsuridir. Bu obraz inson idrokining chegaralari, jamiyatning axloqiy me‘yorlari va ruhiyatdagi ziddiyatlarni ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan kuchli, salmoqli poetik mexanizm hisoblanadi. Bu motiv Sharq mumtoz adabiyotidan tortib zamonaviy modernizm va postmodernizmga qadar keng qo‘llanilgan.

Adabiyot nazariyasida turli arxetipik ildizlarga ega obrazlar borligi barchamizga ayon. Telba obrazi shu ildizlardan bir parcha bo‘lib, uni quyidagi arxetiplarga bog‘liq holda o‘rganamiz:

1. donishmand-telba arxetipi sifatida: Qadimiy miflar va tasavvuf adabiyotida “telba” obrazi ko‘pincha donishmand, insonlarga tushunarsiz bo‘lgan haqiqatni idrok qila olish qobiliyatiga ega obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Tasavvufda esa majzub, mashuqdan bexabar oshiq, mast darvesh tipi telbalikning ramziy ifodasidir.

2. tragedik telba arxetipi sifatida: Tragedik arxetipda albatta, G‘arb adabiyoti nazarda tutiladi. Antik tragediyada aqldan ozish hodisasi- bu fojeaning yuqori cho‘qqisi, insonning ichki bo‘linishi va taqdir bilan to‘qnashuvidir. (masalan, Evripidning qahramonlarini eslaylik! Gerkules aqldan ozgan paytda o‘z farzandlari va xotinini dushman deb o‘ylab o‘ldiradi. O‘ziga kelgach, bu dahshatli haqiqatni anglab, ruhiy sinadi.)

3. ijtimoiy-madaniy telba arxetipi sifatida: Realizm davrida telba obrazi jamiyat me‘yorlariga sig‘maydigan shaxsni aks ettiruvchi ijtimoiy metafora sifatida ishlatiladi (Dostoyevskiy “Jinoyat va Jazo” asari qahramoni Raskolnikovni eslaylik).

XIX oxri XX asr boshlariga kelib realizm davri o‘zbek adabiyotida ham boshlandi. Jadidlar harakatida, ular yozgan asarlarida yaqqol ko‘rinadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari shular jumlasidan. Yuqoridagi ikki romanda uchraydigan telba arxetipi ijtimoiy-madaniy telba arxetipi sifatida diqqatli. Bunda yozuvchining mahorati tahsinga loyiq. Birgina “Qovoqdevona” tipi orqali asar qahramoni Otabekning uylangani, bu uylanishning qadri Otabek uchun qovoqdevonaning bir lagan oshga ega bo‘lgani kabi ahamiyatsiz ekanligini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda, telba obrazining poetik funksiyalariga to‘xtalish maqsadga muvofiq:

birinchidan: ushbu obraz konfliktini kuchaytirish vositasi bo‘lib, telbalik ko‘pincha qahramonning ichki va tashqi ziddiyatlarining avj nuqtasini ifodalaydi. Telbalik orqali adib inson ruhiyatining chegaraviy holatlarini tasvirlaydi.

ikkinchidan: jamiyatni tanqid qilish mexanizmi hisoblanib, badiiy asarda telbaning gaplari “ahmoqlik” emas, balki haqiqatning keskin shaklda aytilgan ko‘rinishidir. Adabiy nazariyada bu hodisa “maskalangan haqiqat” deb talqin qilinadi.

uchinchidan: psixologik chuqurlik yaratish-modern adabiyot telba obrazini inson ongining bo‘linishi sifatida talqin etib, sub’ektiv reallik(har kimning o‘z dunyosi, voqealarni qanday ko‘rsa, qanday his qilsa va qanday tushunsa -o‘sha uning shaxsiy realligi) va o‘zlikning inqirozini tasvirlashda qo‘llaydi.

to‘rtinchidan: ramziy va metaforik yuklama sifatida- telba obrazi absurd, irratsional, tush, vahimaga o‘xshash holatlarni badiiylashtirish imkonini beradi. Bu esa asarga surreal(haqiqat bilan fantastikaning aralashuvi), grotesk(qasddan g‘alati, noan’anaviy, bo‘rttirilgan va ko‘pincha kulgili-qo‘rqinchli tasvir) yoki ekspressionistik(voqeani emas, balki hissiyotni kuchli ifodalashga qaratilgan uslub) tus beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan poetik funksiyalar umumiy holda telba obrazining vazifalarini, qanday maqsadda foydalanilishini ifodalaydi. Ichki bo'linishlari bilan asar tahlil va talqinga olinsa ushbu funksiyalar yanada kengayadi.

O'zbek adabiyotida telba obrazi ko'plab asarlarda uchraydi. Quyida uning tipologik ko'rinishlarini ko'rib chiqamiz. Albatta bunda mumtoz adabiyotiga murojaatdan boshlaymiz.

-mumtoz adabiyotda oshiqning telbaligi asosiy planda turadi. Majnun obrazidagi jununlik (Navoiy "Layli va Majnun") boshqa mumtoz shoirlarda telbalik -yuksak ishqning estetik namunasi.

-jadid va sovet davrida esa ijtimoiy mavqe yo'qotgan odam sifatidagi tipini uchratamiz. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek kabi adiblar ijodida telba obrazi quyidagicha: jamiyatdagi adolatsizlikdan ezilgan, o'zi yashaydigan jamiyatga sig'magan maqsad va orzulari barbod bo'lgan shaxs sifatida tasvirga olinadi.

-zamonaviy adabiy jarayonda ekzistensial telbalik ya'ni mustaqillikdan keyingi yozuvchilar (Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam singari) asarlarida telba obrazi hayotdan mazmun izlagan, yolg'izlikka mahkum obraz sifatida ruhiy bo'shliq holatini ifodalashda qo'llanadi.

Telbalikning semiotik talqini adabiyotshunoslikda badiiy matn, obrazni tahlil qilish uchun ishlatiladi. Semiotika nuqtai nazaridan telba obrazi belgilar tizimining buzilishini anglatuvchi markaziy figuradir. Tilning buzilishi-qahramonning chalkash, ramziy nutqi orqali yangi ma'nolar hosil qilishidir. Makon va vaqt o'zgarishi esa telba ongida real va irreal chegaralari yo'qolishida namoyon bo'ladi. Satirik jihatdan masxara sifatida jamiyatni tanqid qiladi, ichki dunyo, irratsionallik va inson psixikasini namoyish etadi. Telba obrazini semiotik tahlil qilishda nazariyashunoslar belgilar tizimi va kodlash usullaridan foydalanishadi.

Telba obrazi funksiyalari	Izohi
Satirik	Mavjud tuzumdagi illatlarni fosh etish
Pravdiviylik	Oddiy insonlar aytishga botina olmagan haqiqatlar "telba" obrazi orqali tilga olinadi
Simvolik	Asardagi fojiani hammadan oldin fahmlovchi obraz
Tanqid qiluvchi	Johillik, jamiyatdagi adolatsizlik, ijtimoiy zulmni tanqid qiladi
Psixologik fon	Badiiy asardagi beqarorlikni, qo'rquvni kuchaytiradi
Muallif pozitsiyasi	Yozuvchining g'oyalarini namoyon qiladi
Polifonik	Bir o'rinda donishmand, bir o'rinda sirlarni ochuvchi kalit, yana bir o'rinda hech kimsa e'tibor bermaydigan oddiy telba inson (Raskolnikov misolida ko'radigan bo'lsak, u bir paytning o'zida jinoyatchi, ammo o'z ichida bu jinoyatini oqlaydi va ichki ovozi ila ikki falsafasi to'qnashadi.)

Telbalikning semiotik jihatdan quyidagicha: ikona(vizual belgi ya'ni telba obrazining tashqi ko'rinishi: kiyim-kechak, tashqi harakatlar, mimika va yuz ifodasi, rangi, harakatlari), indeks-kontekstual belgi(telba obrazining nutqi, xatti-harakatlari, jamiyatga munosabati orqali uning psixologik holati tahlilga olinadi), Ramziy-abstrakt ma'no(bu obraz ko'pincha axloqiy, ma'naviy yoki ijtimoiy vosita sifatida axloqiy tanazzulni ifodalashi) tahlilga olinadi.

XX asrga kelib ushbu obraz jamiyatdagi nosog'lom odatlarni ko'rsatish uchun qurol sifatida qo'llanildi. O'zbek romanchiligida telba kulgili, ammo tanqidiy obraz sifatida ayniqsa diqqatga sazovor. "O'tkan kunlar" romani bunga misoldir. Psixologik ifoda sifatida qovoqdevona obrazi Otabekning ichki dunyosi, ruhiyatidagi talotoplarni, o'ziga xos qarama-qarshiliklarni tahlil jarayoni semiotik kodlar orqali ochiladi. Bunda ichki dialog, monolog asosiy rol o'ynaydi. Telbalik o'zbek madaniy kontekstida: xalq hazillari, maqollar, aforizmlar, iboralar va urf-odatlar kabi kodlanadi. Xalq og'zaki adabiyotida telba qahramon donolik va ayyorlikni birlashtirgan tarzda tasvirlansa, badiiy asarlarda topqir, katta sirlarni fosh qilib, tugunni yechadigan obraz sifatida beriladi.

Yuqorida tilga olingan "Qovoqdevona" obrazini semiotik tahlilga olsak,

ikona: qovoq-tashqi ko'rinishida ramziy belgi. Uning beliga ilib olgan qovoqlarini nomlashi esa devonaning oddiy odam emasligini ifodalaydi.

indeks: qovoqdevonaning nutqi, harakatlari orqali "aqlidan ozish" holatini, ma'nosiz so'zlashini ko'rsatadi. Masalan, u "jinnilar, voy esi yo'q xo'varilar!" deb gapirishi uning real va irratsional dunyo o'rtasida joylashganligini bildiradi.

simvol: devona obrazida qovoq shakli ko'rinishi, psixologik va ma'naviy ramz olarak ma'no kasb etadi.

Milliy va madaniy kontekst: Qovoq va qovoqli belbog' kabi elementlar o'zbek folklorida yoki xalq xotirasida ma'lum belgilarni anglatishi mumkin. Qovoqdevonaning tasviri- an'anaviy va milliy madaniyatdagi devona obrazlari, "bozorlarda" yoki xalq qiziqishidagi "bozordagi jinnilar" unsuri bilan ulanadi.

Xulosa sifatida adabiyot nazariyasida telba obrazining mohiyati, funksiyalarini o'rganishda nafaqat psixologik holatning tasviri, balki badiiy-estetik konsepsiyaning muhim unsuri tarzida qarash o'rinli. Telba obrazi o'zida: haqiqatni ochish va yuzaga chiqarishning noodatiy shakli, jamiyatni tanqid qilishning eng qulay vositasi, qahramon ruhiyatining ekstremal holatini ifodalovchi epizod, falsafiy umumlashma va ramziy talqinning kuchli mexanizmidir. Shuning uchun telbalik motivi zamonaviy adabiy jarayonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay yangi poetik vazifalar bilan boyigan hodisa sifatida o'rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Baxtin, 1972. M. Dostoyevskiy poetikasining muammolari. – Moskva: Iskustvo,

2. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, turli yillar.
3. Dostoyevskiy, F. M. 2015. Jinoyat va jazo. “Yangi asr avlodi”,
4. Abdulla Qodiriy 2024-yil “O‘tkan kunlar”. “Ziyo nashr”,
5. Qodiriy A. 2019. Mehrobdan chayon:roman/.- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi,
6. <https://tsuul.uz>
7. <https://yoshlikjurnali.uz>
8. Узоқ Жўрақулов. Михаил Бахтин кашфиётлари — [ziyouz.uz](https://share.google/QvAHP0m04N3Dy0Ae9)
<https://share.google/QvAHP0m04N3Dy0Ae9>
9. Жўрақулов, Узоқ. Қодирий ва роман тафаккури [Матн] : монография / У. Жўрақулов. – Тошкент: "Nurafshon business", 2020. – 104 б
10. O‘zbek adabiyotida kulgining o‘rni latofat ismatovna tashmuxeamedova Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти Тошкент – 2005.